

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini muntazam ravishda bashorat qilib borishning raqamlashtirilgan milliy monitoring tizimini yaratish, uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida ekinlarni bargidan oziqlantirish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish texnologiyalarini ishlab chiqish	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Sun‘iy intellekt texnologiyalari asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini bashorat qilib borishning milliy monitoring mexanizmi (uslublari) ishlab chiqiladi; - Vegetatsiya davrida qishloq xo‘jaligi ekin turlarida kuzatiladigan kasalliklar va zararkunandalar ta‘siri jarayonini bashorat qilishning elektron raqamli klassifikatorlari yaratiladi; - Qishloq xo‘jaligi ekinlarini bargidan oziqlantirish, defolyatsiya qilish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish bo‘yicha agroteknik tadbirlar uchun mo‘ljallangan uchuvchisiz uchish qurilmalari va ularni qo‘llashga qaratilgan uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqiladi; - Qishloq xo‘jaligi ekinlarini boshqarish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan turli mavzuli elektron raqamli kartogrammalar yaratiladi; - Qishloq xo‘jaligi ekinlari bo‘yicha milliy ma‘lumotlar bazasi shakllanadi va yagona geoportal tizimiga integratsiya qilinadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.

